




KOREYA RESPUBLIKASI BILAN STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI IQTISODIY KUN TARTIBINI SHAKLLANTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-sentabr kuni Koreya Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, iqtisodiyot va moliya vaziri Chxu Gyon Xo boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O‘zbekiston bilan Janubiy Koreya o‘rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Bosh vazir o‘rinbosari Chxu Gyon Xo davlatimiz rahbariga Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbatda azaldan yaqin do‘stlik rishtalariga, xalqlarimizning mentaliteti, an‘ana va qadriyatlarini o‘xshashligiga asoslangan ikki tomonlama aloqalar izchil rivojlanib borayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidenti Janubiy Koreya bilan keng ko‘lamli hamkorlikning yangi

iqtisodiy kun tartibini shakllantirish masalalariga to‘xtaldi.

Keyingi yillarda o‘zaro savdo va investitsiya ko‘rsatkichlari barqaror oshib bormoqda. O‘tgan yilda tovar ayirboshlash 24 foizga ko‘paydi. Mamlakatimizda qariyb 1 mingta qo‘shma korxona faoliyat yuritmoqda, Koreyadan investitsiyalar hajmi 7 milliard dollardan oshdi.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi, Koreya Eksimbanki va uning fondlari bilan ko‘p yillar davomida samarali hamkorlik qilinayotgani, ular bilan birgalikdagi loyihalarning umumiy portfeli 3 milliard dollardan ziyodni tashkil etgani yuqori baholandi.

Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan qo‘shma loyihalar qatorida ko‘p tarmoqli bolalar shifoxonasi, to‘qimachilik texnopar-

ki, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi va no-dir metallar bo‘yicha markazlar qayd etildi.

Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan texnologik va investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni jadallashtirish, infatuzilma, “yashil” energetika, davlat boshqaruvi, moliya, raqamlashtirish va kadrlar tayyorlash borasidagi qo‘shma loyihalarni ilgari surish amaliy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Ikki mamlakat hududlari o‘rtasida samarali muloqotlarni yo‘lga qo‘yish va madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish uchun keng imkoniyatlar borligi ta’kidlandi.

O‘ZA

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI BO‘YICHA XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, xonimlar va janoblar!

Siz, azizlarni qadimiy va go‘zal Samarqand shahrida oziq-ovqat xavfsizligiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan xalqaro konferensiyaning ochilishi bilan chin qalbidan tabriklayman.

Mazkur anjumanda dunyoning 32 ta davlatidan 620 nafardan ziyod xorijiy mehmon hamda 30 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotdan vakillar qatnashayotgani unga jahon miqyosidagi katta qiziqish va e‘tibordan dalolatdir.

Albatta, ushbu konferensiya uchun aynan Samarqand shahri tanlangani bejiz emas. Qariyb uch ming yillik tarix va madaniyatga ega bo‘lgan bu ko‘hna shahar asrlar davomida Buyuk ipak yo‘lidagi muhim chorraha bo‘lib kelgan.

Sizlarga yaxshi ma‘lumki, oziq-ovqat xavfsizligi, uni barqaror yetkazib berish, ochiqlik va qashshoqlikka qarshi kurash masalalari bugun ham o‘ta dolzarb bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi o‘n yillarda “yashil inqilob” va innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshdi, tobora ko‘payib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta‘minlashda sezilarli yutuqlarga erishildi.

Afsuski, keyingi paytda koronavirus pandemiyasi, jahon siyosati va iqtisodiyotidagi inqirozlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimida zanjirlarning uzilishi va narxlar oshishiga sabab bo‘ldi.

Bundan, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar jabr ko‘rmoqda. Global iqlim o‘zgarishlari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimiga investitsiya hajmi kamayishi vaziyatni yanada og‘irlashtirmoqda. Bu esa Barqaror

rivojlanish maqsadlariga erishishni xavf ostida qoldirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish janoblari-ning 2021-yilda oziq-ovqat tizimlari bo‘yicha global sammit o‘tkazish borasidagi tashabbusini birinchilardan bo‘lib qo‘llab-quvvatladi. Bugungi anjuman ana shu sammitning mantiqiy davomidir.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi ekinlarining serhosil, tashqi ta’sirlarga chidamli navlarini yaratish, chorva naslini yaxshilash o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fermerlar va kichik ishlab chiqaruvchilarga axborot-sarursat yordamini tashkil etish, ularni resurs tejaydigan ilg‘or texnologiya va usullar bo‘yicha o‘qitish uchun agrokonsalting xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash ham dolzarb bo‘lib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalar va qishloq xo‘jaligi texnikasi rivojlanish va rivojlantirayotgan mamlakatlardagi fermerlar uchun bir xilda ochiq va hamyonbop bo‘lishi kerak. Biz xalqaro moliya institutlarini ushbu masalaga alohida e‘tibor qaratib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining “yashil texnologiyalar”dan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga chaqiramiz.

Biz eng zarur mahsulotlar savdosi va transportirovkasida to‘liq erkinlik hamda oziq-ovqat yuklari harakatini tartibga soladigan qoidalarini soddalashtirish taraforimiz. Savdo yo‘llari xavfsizligi va ochiqligini ta‘minlash davlatlararo munosabatlarda o‘zgarmas tamoyil bo‘lib qolishi zarur.

Qadrlı do‘stlar!
O‘zbekiston zamini o‘zining qadimiy va boy dehqonchilik an‘analari, g‘oyat xilma-xil, mazali va noyob qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan azaldan shuhrat qozonib keladi.

Agrotarmoq iqtisodiyotimizdagi yetakchi sektorlardan biri bo‘lib, mehnatga layoqatli aholimizning 27 foizi ushbu sohada mehnat qiladi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini yanada samarali va resurs tejaydigan sohaga aylantirish, qishloqda aholi hayot darajasini yaxshilash, xalqimizni arzon va barqaror narxlarda xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, sog‘lom ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda.

Bizning yurtimizdan yetishib chiqqan, G‘arbdagi “Avitsenna” degen nom bilan shuhrat qozongan buyuk alloma Ibn Sino bobomiz o‘rta asrlardayoq “Kimki uzoq va sog‘lom hayot kechirishni istasa, avvalo, ovqatning sifati va miqdoriga e‘tibor qaratsin”, deb ta’kidlaganlar.

Albatta, dunyo aholisi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish — uzoq davom etadigan jarayon. Bu maqsadga erishishda barcha davlatlar hukumatlari, ishlab chiqaruvchilar, olimlar va tibbiyot xodimlari yaqin hamkorlikda ish olib borishlari lozim, deb hisoblaymiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Sizlar konferensiya davomida ana shunday muhim masalalar haqida atroflicha fikr almashib, global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladigan yangi tashabbus va amaliy takliflarni ishlab chiqasiz, deb ishonaman.

Mehmondo‘st O‘zbekiston zaminiga xush kelibsiz!
Mamlakatimizga tashrifingiz mazmunli va samarali bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

BMT OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI TASHKILOTI BILAN STRATEGIK SHERIKLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARI BELGILAB BERILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-sentabr kuni Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiya ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo‘lib turgan BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bosh direktori Syuy Dunyuyni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida mamlakatimiz yetakchisi yuqori darajali mehmonni Bir-lashgan Millatlar Tashkilotining yetakchi tarmoq tuzilmasi rahbari etib qayta saylangani bilan qutladi hamda shu kunlarda Samarqand shahrida o‘tayotgan konferensiya qo‘llab-quvvatlagani va uning ishida shaxsan ishtirok etayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

FAO bosh direktori O‘zbekiston Prezidentini global miqyosda dolzarb bo‘lgan mavzudagi ushbu xalqaro konferensiya o‘tkazish tashabbusi muvaffaqiyatli

ro‘yobga chiqqani va tadbir yuksak darajada tashkil etilgani bilan tabrikldi.

Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solayotgan bugungi xavf-xatarlarga qarshi, shu jumladan, mintaqa darajasida kurashish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Agrar tarmoqni rivojlantirishdagi no-mutanosibliklar, suv resurslarining tanqisligi, qo‘shimcha qiymat yaratishning uzun va samarasiz zanjirlari, logistika-dagi uzilishlar va boshqalar barqaror rivojlanish uchun asosiy xatarlar sifatida qayd etildi.

O‘zbekiston va FAO o‘rtasida 2030-yilga qadar mo‘ljallangan yangi hamkorlik dasturiga qishloq xo‘jaligini ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar asosida modernizatsiya qilish, agrar sohani raqamlashtirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning ta’sirchan vositalarini amalga oshirish va agrozziq-ovqat tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shma tadbirlarni kiritishga kelishib olindi.

O‘ZA



XALQARO KONFERENSIYA



OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI:

BIRGALIKDA HAL ETILADIGAN DOLZARB MASALA

Samarqandda o‘tayotgan xalqaro anjuman ishtirokchilari masalaga shunday yondashmoqda



Samarqand yana dunyo e‘tibori markazida. Shu kunlarda azim shaharda O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tmoqda.

Tadbirda 30 dan ziyod mamlakat vazirliklari vakillari, diplomatlari, xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari, ilmiy tashkilotlar, shuningdek, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Jahon banki, Islom oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro tashkilotlardan 2 mingdan ortiq mutaxassis qatnashmoqda.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURORINING MAMLAKATIMIZ AHOLISIGA MUROJAATI

Muhtaram otaxon va onaxonlar!

Aziz opa-singilar!

Qadrlı yoshlar!

Hurmatli yurtdoshlar!

Sizlarga yaxshi ma‘lumki, bugungi kunda mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida inson qadrlini ulug‘lash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini ta‘minlash, turmush farovonligini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sud-huquq tizimidagi tub o‘zgarish va

islohotlar natijasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta‘minlash nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki barcha vazirlik va idoralar, hokimliklar va keng jamoatchilikning umumiy ishi, muhim vazifasiga aylandi.

Huquq-tartibot idoralari barcha zarur kuch va vositalar bilan yetarli darajada ta‘minlanib, vakolatlari kengaytirildi, samarali ishlashi uchun ularga barcha sharoitlar yaratib berildi.

Xabaringiz bor, 2021-yildan boshlab yurtimizda huquqbuzarliklarning oldini

olish bo‘yicha “mahallabay ishlash” tizimi tatbiq etilgan edi. Unga ko‘ra, har bir mahallaga alohida yondashgan holda, manzilli ish olib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Joriy yildan esa “mahalla beshligi” — “mahalla yettilligi”ga aylan-tirilib, uning faoliyatiga aholining ijtimoiy muammolarini aniqlash va hal etishga qaratilgan “jinoyatlarning ijtimoiy profilaktikasini amalga oshirishga” tayanadigan yangicha ishlash tizimi joriy qilindi.

Davomi 2-betda



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

BOSH PROKURORINING MAMLAKATIMIZ AHOLISIGA MUHOJIRATI

Boshlanishi 1-betda

Eng asosiysi, sodir etilayotgan jinoyatlarning kelib chiqish sabablari bevosita aholi ishtirokida joylarda muhokama qilinadigan, jamoat xavfsizligi uchun mas’ullar mahallaning o’zida hisobot beradigan bo’ldi.

Shu yilning o’tgan davrida prokuratura organlari tomonidan yurtimizning barcha hududlarida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo’yicha faoliyatni samarali tashkil etish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning muvofiqlashtiruvchi yig’ilishlari o’tkazilib, mazkur yo’nalishda har bir hududdagi kriminogen vaziyatdan kelib chiqqan holda manzilli chora-tadbirlar belgilandi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash holatini o’rganish bo’yicha **4,5 mingga** yaqin tekshirishlar o’tkazilib, prokuror nazorati bilan bog’liq **6,5 mingdan ortiq** hujjatlar qo’llanildi.

Amalga oshirilgan choralar hamda keng jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikda olib borilgan tizimli profilaktik tadbirlar natijasida o’tgan davrda **4 mingdan ziyod** mahallada jinoyat sodir etilishiga yo’l qo’yilmadi.

Albatta, faoliyatimizdagi bunday yutuqlar o’zimizniki. Ayni paytda huquqbuzarliklarni jilovlash borasida oldimizda hal etilishi lozim bo’lgan muammoli holatlar ko’p ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Hayotimizning barcha sohalari-da inson qadri ulug’lanayotgan hozirgi tarixiy sharoitda butun yurtimizda o’zaro hurmat va hamjihatlik muhitini asrash, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash borasida prokuratura organlari xodimlarining zimmasidagi mas’uliyatli vazifalar yanada ortib borayotganini biz —

“

AYNIQSA, PREZIDENTIMIZ TOMONIDAN TASDIQLANGAN JAMOAT XAVFSIZLIGI KONSEPSIYASIDA BELGILANGAN MAQSAD VA VAZIFALARNI MAMLAKATIMIZDAGI HAR BIR VILOYAT, SHAHAR, TUMAN, QISHLOQ VA MAHALLANI “JINOYATDAN XOLI HUDUDGA AYLTIRISH” G’OYASI ASOSIDA TO’LIQ AMALGA OSHIRISH BO’YICHA BOR KUCH VA IMKONIYATLARIMIZNI YO’NALTIRAMIZ. BUNDA SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIK LARNING SABAB VA OMILLARI YUZASIDAN TIZIMLI VA ILMIY TAHLILLAR O’TKAZISH YO’LGA QO’YILADI, ULARNI BARTARAF ETISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQILIB, IZCHIL AMALGA OSHIRILADI.

tizim xodimlari chuqur his etmoqdamiz.

Shu o’rinda davlatimiz rahbari aytgan fikrlarga muvofiq, faoliyatimizda mavjud muammolarga yechim topish, aholi uchun xavfsiz sharoitlar yaratish borasidagi ishlarni jadallashtirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Bu borada Prezidentimiz bergan ko’rsatmalardan kelib chiqib, **qonun ustuvorligini ta’minlash maqsadida** prokuratura organlari tomonidan boshqa idoralar bilan hamkorlikda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab olindi.

Eng avvalo, huquqbuzarliklarning oldini olishga doir normativ-huquqiy hujjatlar, “yo’l xaritalari” va dasturlarda belgilangan chora-tadbirlarning ijrosi ustidan qat’iy tizimli nazorat amalga oshiriladi.

Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan tasdiqlangan **Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida** belgilangan maqsad va vazifalarni mamlakatimizdagi har bir viloyat, shahar, tuman, qishloq va mahallani **“jinoyatdan xoli hududga aylantirish”** g’oyasi asosida to’liq amalga oshirish bo’yicha bor kuch va imkoniyatlarimizni yo’naltiramiz. Bunda sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabab va omillari yuzasidan tizimli va ilmiy tahlillar o’tkazish yo’lga qo’yiladi, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, tahlillarga ko’ra, joriy yilning o’tgan davrida oldini olish mumkin bo’lgan jinoyatlarning **45 foizdan ortig’i** bevosita **mahallalarda** sodir etilgan.

Ayni paytda mamlakatimiz bo’yicha **1,7 mingga yaqin** yaxshilash — kechiktirib bo’lmaydigan vazifamizdir. Shu bois, har bir hududda mahalla raisi, profilaktika inspektori, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, soliq inspektori va ijtimoiy xodimdan iborat bo’lgan **“mahalla yetiligi”**ning faoliyat samaradorligini oshirish choralari ko’ramiz. Ayniqsa, ularning jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi bilim, ko’nikma va mahorati hamda eng asosiysi, faoliyat samarasini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Shu maqsadda boshqa oliy ta’lim muassasalari bilan birgalikda Bosh prokuraturaning Huquqni muhofaza qilish akademiyasining malakali xodimlari va professor-o’qituvchilarini keng jalb etgan holda **sayyor malaka oshirish yig’inlari** tashkil etiladi, “mahalla yetiligi”ning aholi orasida osoyishtalikni manzilli ta’minlashga qaratilgan faoliyatiga har tomonlama metodik ko’mak beriladi.

Hozirgi vaqtda og’ir va o’ta og’ir jinoyatlar nisbatan ko’proq sodir etilgan **716** mahallaga Bosh prokuratura va viloyat prokuraturalarining rahbar xodimlari birlashtirilib, vaziyatni o’nglash bo’yicha manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Albatta, yil yakuniga qadar mahallalarda tinchlikni ta’minlash borasidagi barcha ishlar muvofiqlashtirib boriladi va kriminogen vaziyatni yaxshilashga erishiladi.

Uchinchidan, yoshlar tarbiyasida **oilaning, ota-onalarning mas’uliyatini** oshirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda ta’lim muas-

Bu borada biz katta hayot tajribasiga ega bo’lgan hurmatli nuroniy-larimiz, oqila opa-singillarimiz, azmu shijoatli yoshlarimiz, mahalla faollariga tayanamiz.

To’rtinchidan, muayyan tarmoq va sohalariga mas’ul bo’lgan idora va tashkilotlar rahbarlari o’z tizimida jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida bevosita ishtirok etishi g’oyat muhim hisoblanadi. Ular-ning ishtiroki jinoyatlarning sabab va omillarini bartaraf etish imkoniyatlarini yanada kengaytirib, o’z sohasida jinoyatchilikni kamaytirish, uni **“korruptsiyasiz sohaga”** aylantirishni jadallashtiradi.

Shu bois, idora va tashkilotlar rahbarlari tomonidan o’z faoliyat yo’nalishida sodir etilayotgan jinoyatlarni chuqur o’rganib, ularga chek qo’yish masalalari ham respublika darajasida, ham joyiga chiqqan holda muhokama qilinishi maqsadga muvofiq, deb o’ylaymiz. Bu jarayonlar ustidan qat’iy nazorat o’rnatilib, sodir etilayotgan jinoyatlar, ayniqsa, korruptsiya holatlariga barham berish bo’yicha kompleks tahliliy va amaliy ishlar tizimli ravishda olib boriladi.

Beshinchidan, bugungi shiddatli axborot zamonida jinoyatchilikning yangi turlari, jumladan, **kiberjinoyatchilik** ko’paymoqda. So’nggi uch yilda bunday jinoyatlar qariyb **25 barobar** oshgan, fuqarolarning katta miqdordagi pullari **onlayn tarzda** o’g’irlangan.

Bunday jinoyatlarning oldini olish uchun profilaktik chora-tadbirlar bilan bir qatorda ularni fosh etish bo’yicha qator tashkiliy-texnik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Huquqni muhofaza qilish akademiyasida aynan shu yo’nalishda o’qitiladigan hamda ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladigan maxsus kafedra, ilmiy-uslubiy markaz va o’quv laboratoriyasi tashkil etildi. Qisqa muddatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ko’plab xodimlari o’qitildi.

Kelgusida bunday tadbirlarni yanada kuchaytirib, normativ-huquqiy hujjatlardagi bo’shliqlarni bartaraf etish, fuqarolarimizni kiber tahdidlardan himoya qilish, mazkur sohaga zamonaviy dasturiy-texnik yechimlarni va yangicha ish usullarini joriy etish bo’yicha kompleks choralar ko’riladi.

Oltinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish samarasi **jinoyat uchun jazo muqarrarligiga** bevosita bog’liq. Shu bois, turli yashirin jinoyatlarini fosh etish hamda jabrlangan fuqarolarning huquqlarini himoya qilish choralari qo’llash jarayoni jadallashtiriladi. Bunda barcha sa’y-harakatlarimiz yangi samarali mexanizmlarni tatbiq etishga qaratiladi.

Ayniqsa, nazorati bevosita prokuratura organlariga yuklatilgan yer

Siyosat

YANGI O‘ZBEKISTON



BIZ VA DUNYO

Elchi Furqat SIDIQOV:

YANGI O‘ZBEKISTONNING AQSH BILAN MUSTAHKAMLANIB BORAYOTGAN STRATEGIK HAMKORLIGI

Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va farovonlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda

“The diplomat” onlayn-nashrida mamlakatimizning AQSHdagi elchisi Furqat Sidiqovning “O‘zbekistonning islohotlar dasturi: AQSH bilan ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlovchi katalizator” sarlavhali maqolasi e’lon qilindi.

Maqolada O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yildan buyon demokratiya, inson huquqlari va bozor siyosati tamoyillarini o‘zida mujassam etgan, ma’rifat va taraqqiyotga yo’naltirilgan yangi O‘zbekistonda barpo qilar ekan, mamlakat ulkan o‘zgarishlarni boshdan kechirayotgani qayd etilgan.

“Davom etayotgan o‘zgarishlar oson kechmadi, biroq 2016-yildan buyon O‘zbekistonda yangilangan Konstitutsiya va diniy erkinlik to‘g‘risida yangi qonun qabul qilindi, oilaviy zo‘ravonlikka jinoyi javobgarlik belgilandi, iqtisodiy rivojlanishga e’tibor kuchaydi, shuningdek, xususiy mulk himoyasini ta’minlash bo’yicha katta sa’y-harakatlar va boshqa ko‘plab islohotlar amalga oshirildi, — deb yozgan O‘zbekiston elchisi. — Ushbu muhim o‘zgarishlar nafaqat mamlakatning ichki manzarasini yaxshi tomonga o‘zgartirdi, balki uning asosiy ittifoqchilari va hamkorlari, xususan, Qo’shma Shtatlar bilan muhim munosabatlarni mustahkamladi”.

Nashrda yangi O‘zbekiston shakllanishda davom etar ekan, Jo Bayden ma’muriyati yaqin va keng qamrovli

oyidagi davlat tashrifidan so‘ng AQSH Kongressi huzurida tashkil etilgan “O‘zbekiston bo’yicha kokus” sezilarli darajada kengaydi va birgina joriy yilning o‘zida O‘zbekiston parlamentining 10 dan ortiq delegatsiyasi AQSHda bo‘ldi.

Ushbu maqolada 2016-yildan buyon O‘zbekiston inson huquqlari va mehnat huquqlarini ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlar islohotlarning asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib qolishi uchun tinimsiz mehnat qilayotgani ham qalama olingan.

“Mamlakatimiz ushbu sohada aql bovar qilmas taraqqiyotga erishdi. Masalan, Cotton Campaign xalqaro koalitsiyasi o‘zbek paxtasiga nisbatan o’n yillik boykotini bekor qildi. Ushbu tarixiy qadam mamlakat ichida to‘qimachilik sanoati o‘zishiga yo‘l ochmoqda va AQSHning nomdor brendlari va chakana sotuvchilari bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. O‘zbekistonda bolalar mehnatiga va majburiy mehnatga to‘liq barham berilishi mamlakat va Markaziy Osiyoni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar dasturining boshlanishi, xolos”, deb yozgan diplomat.



strategik hamkorlikni ta’minlangan demokratik o‘zgarishlarga va bozor islohotlariga qaratilgan ushbu turkum o‘zgarishlarni o‘lqishlagani va qo‘llab-quvvatlaganiga alohida e’tibor qaratilgan.

Muallif shu o’rinda AQSH davlat kotibi Entoni Blinkenning joriy yil mart oyida O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida aytgan quyidagi so‘zlaridan iqtibos keltirgan: “Biz Prezident Mirziyoyevning islohotlar dasturini to‘liq amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash orqali hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirmoqdamiz. O‘zbekistonning mehnat huquqi bo’yicha erishgan yutuqlari bu kun tartibi naqadar o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi”.

Elchi, shuningdek, 2015-yilda Samarqandda ilk marta o‘tkazilgan va davlat rahbarlari darajasiga chiqqan navbatdagi “C5+1” sammiti oldidan AQSH Prezidenti Jo Baydenning Shavkat Mirziyoyevga yo‘llagan mak-tubini amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirib borayotgani dalili sifatida ko‘rish mumkinligini ta’kidlagan.

“Mamlakatdagi islohotlar O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda, — qayd etadi elchi Furqat Sidiqov. — Yillik siyosiy maslahatlashuvlar yaqinroq va mustahkam hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategik sheriklik muloqoti darajasiga ko’tarildi”.

AQSH bilan aloqalarimiz Kongressda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil may

Shuningdek, nashrda yangi O‘zbekistondagi qonun ustuvorligi bilan qo‘llab-quvvatlanadigan biznes uchun qulay muhitni yaratishga qaratilgan sa’y-harakatlar AQSH bilan savdo va sarmoya hajmi oshishiga xizmat qilayotgani qayd etilgan.

“Amerikaning O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kompaniyalari soni so‘nggi olti yilda ikki barobar ko‘paydi, AQSH bilan umumiy tovar va xizmatlar savdosi hajmi bir vaqtning o‘zida uch barobar oshdi, — deya ta’kidlagan maqolada muallif. — Darhaqiqat, AQSHning mashhur Caterpillar, John Deere, CNH Industrial, General Electric, Hilton, Delphos International kabi kompaniyalari O‘zbekistondagi investitsiya hajmini oshirdi. Air Products kompaniyasi esa 1 milliard dollarlik sarmoyasi bilan Qashqadaryo viloyatidagi tabiiy gazni sintetik gazga qayta ishlash zavodiga kirib keldi”.

Iqtisodiy islohotlar biznes aloqalarini qanday mustahkamlayotganiga yana bir ajoyib misol IT sektori ekani maqolada ta’kidlangan.

“Yangi O‘zbekistonning AQSH bilan mustahkamlanib borayotgan strategik hamkorligi Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va farovonlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu dinamik munosabatlar ko‘proq e’tiborga loyiq va biz birgalikda ishlashimiz kerakligini eslatib turadi”, deb yozilgan “The diplomat”da e’lon qilingan maqola xulosasida.

“Dunyo” AA

Vashington

BIRGALIKDA HAL ETILADIGAN DOLZARB MASALA

 Boshlanishi 1-betda



Dunyo olimlari ta'kidlaydiki, agar ushbu ishlar to'g'ri tashkil etilsa, hozir dunyoda yetishtirilayotgan mahsulot hammaga yetarli bo'ladi. Boshqacha aytganda, ocharchilik bo'lishi kerak emas. Lekin qaysidir sabablarga ko'ra uzilishlar borki, konferensiyada ana shularga alohida e'tibor qaratilib, asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bir davlatdan ikkinchi davlatga yetkazib berish, yagona standartlar, raqamlashtirilgan tizimlar ishlab chiqilishi masalalari muhokama qilinmoqda.



Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

UNING BILIMIDAGI BO'SHLIQ O'QITUVCHINING SAVIYASIDAN DARAK



— "Direktorlar maktabi" juda katta ahamiyatga ega. Jumladan, direktorlarning mam-lakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlarni ijrosini joylarda, xususan, maktabda ta'min-etadigan boshqaruvchi shaxs. Bir so'z bilan aytganda, menejer. U boshqaruvga oid zamonaviy bilim va ko'nikmalarga, yuksak axloqiy va boshqaruv tajribasiga, xorijot-kommunikatsiya texnologiyalarini faoliyati-da qo'llash, shuningdek, jamoada ishlash,

Direktorlikka nomzodlar esa huddarlardi eng tajribali, obro'li, e'tibori mutaxassislardan shakllantiriladi. U "Direktorlik kengashi" tomonidan tanlab olinishi ko'zda tutilyapti. Bunda menejerlik sertifikatiga ega shaxsni asl nomzod sifatida qabul qilish darajasi uning malaka talabiga kiritilmoqda. Maxsus tayyorlanikdan o'tgan va menejerlik sertifikatiga ega nomzodgina direktor bo'lishga da'vogarlik qilishi mumkin. Bu nima beradi? Bu, birinchi navbatda, maktab boshqaruviqa maxsus tayyorlanikdan o'tgan, yuksak bilim, mahorat, ilg'or tajriba kabi kerakli ko'nikmalarni egallagan va ta'lim siyosatini yaxshi tushungan hamda uning joriy eta olishiga qaysidir ma'noda ishonch bildirilgan shaxsqa maktabni ishonib topshirish imkoniyatidir. Maktabdagi ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv muhitini yaxshilash va o'quvchilarga sifati ta'lim oliy sharoitini yaratib berishga zamini yaratadi.

Hozir tez rivoyalari borayotgan jamiyatlarda yashayapmiz. Bu esa kun sayin oldimizga yangi qayta talablar, yangi vazifalar qo'yapti. Har birimizni qaysi sohada, qaysi tashkilotda, qaysi lavozimda faoliyat yuritaylik, izlanishga, oldinga intilishga, yangi-yangini muammolarga yangicha yechimlarni qidirishga undamoqda. Bu lavozimga kelishdan oldin ta'limda xalqaro tadqiqotlarni joriy etish bo'yicha mas'ul vazifada ishlaganman. O'shanda Xalqaro ta'limdagi yutuqlarni baholash uyushmasi bilan birgalikda savodxonlikni baholash dasturini joriy qilganimizda birgina boshlang'ich ta'limda o'quvchilarningizning o'qib tushinishi xalqaro o'rta darajaga ham yetmayotganini ko'rdik. Bu loyihada 57 davlat qatnashgan bo'lsa, ularning ichida bizning kutilgan natijagaicha ancha qadami bosib o'tishimiz kerakligi tahlillarda ayon bo'lgan. Bu tahlillar xalqaro darajada, bir xil o'lchov asosida joriy qilingan tadqiqot natijasi...

Yangi o'quv yilidan boshlang'ich sinflarni yangi darslik majmualari asosida o'qitish yo'lga qo'yildi. Jarayon yangi darslikni faqat maktabga olib borib berish bilan cheklanmaydi. Darsliklar ustida katta jamoa ishlagan. Demak, eng yangi ma'lumotlar, bilimlarni joriy etishga harakat qilingan. Shu bilan birga, uning yetkazib beradigan o'qituvchilarning malaka-sini oshirish zimmamizdagi eng katta vazifa. Shuni ko'zda tutib, joriy yil 14-17-avgust kunlari Maktabdagi va maktab ta'limi vazirligi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi hamda Abdulla Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti hamkorligida "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" mavzusida makala oshirish kursa tashkil etildi. Kursda yurtimizning barcha hududidan taklif etilgan 300 dan ortiq ilg'or pedagog va metodistlar makala oshirdi hamda hududiy trener sifatida tayyorlandi. Aynan ular joylarda yangi darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'qituvchilarni zamonaviy kaskad usulida tayyorlaydi. To'rt kunlik kursda boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitish metodikasi, o'quvchilar natijalarini baholash, fanlarni integratsiyani ta'minlash kabi mavzularda mashq'ulotlar olib borildi.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA
suhbatlashdi.**

CHET O‘LKANING GULZORIDAN CHO‘P-U XASLI YERIM YAXSHI...

Muloqotda qatnashgan tadbirkorlik subyektlari rahbarlari, yangi barpo etilgan korxonalar mutasad-

Jonim — Vatan, tanim — Vatan,
ko'zim — Vatan,
Esdan chiqar oni ko'rg'och ko'rg'on yerim...
Chet shaharning gulzorian ko'zga yaxshi,
O'roq birla xoru xasin o'rg'on yerim...

Otabek ISROILOV
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi

